

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**MATYAKUBOV ALISHER ESHCHANOVICH**

**O‘ZBEKISTONNING MA’MURIY-HUDUDIIY O‘ZGARISHLAR TARIXI  
(1924-2023 YY., XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**Matyakubov Alisher Eshchanovich**

О‘zbekistonning ma‘muriy-hududiy o‘zgarishlar tarixi (1924-2023 yu., Xorazm viloyati misolida).....3

**Матякубов Алишер Эшчанович**

История административно-территориальных преобразований Узбекистана (1924-2023 гг., на примере Хорезмской области).....25

**Matyakubov Alisher Eshchanovich**

History of administrative-territorial changes in Uzbekistan (1924-2023, using the example of Khorezm region).....49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**MATYAKUBOV ALISHER ESHCHANOVICH**

**O‘ZBEKISTONNING MA’MURIY-HUDUDIIY O‘ZGARISHLAR TARIXI  
(1924-2023 YY., XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B 2023.3.PhD/Tar1563 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Davletov Sanjarbek Rajabovich,**  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Koshanov Baxit Abdikerimovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich**  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq  
gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.30.06.2021.Tar.55.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "10" dekabr soat 14 : 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (862) 224-66-16.) e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (892 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (862) 224-66-16; e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "22" noyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "22" noyabr dagi 22 raqamli reestr bayonnomasi.)



**M. K. Saribaev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, dotsent

**X. X. Matyakubov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari doktori, dotsent

**U. I. Abdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

## Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda kechayotgan geosiyosiy jarayonlar, iqtisodiy islohotlar va davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan tizimli chora-tadbirlar ma'muriy-hududiy islohotlarning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa global miqyosda hududiy boshqaruvni takomillashtirish, resurslarni samarali taqsimlash, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Dunyo miqyosida Sovet davlatidagi ma'muriy-hududiy o'zgarishlar, iqtisodiy rayonlashtirishning oqibatlarini, Markaziy Osiyo respublikalarida mustaqillik yillaridagi ma'muriy-hududiy islohotlar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Zero, davlatchilik taraqqiyotining xorijiy tajribasida ma'muriy islohotlar, ma'muriy-hududiy o'zgarishlar davlatlarning iqtisodiy barqarorligi va strategik rivojlanishida muhim o'rin tutadi. XX asr davomida dunyoning ko'pgina mamlakatlarning iqtisodiyotidagi islohotlar doirasida ma'muriy tuzilmalar qayta shakllantirilib, ularning boshqaruv va resurslarni taqsimlash imkoniyatlari kengaytirildi. Germaniya, Fransiya, Xitoy va boshqa rivojlangan davlatlar misolida ham hududiy boshqaruvni takomillashtirish orqali davlat tizimining samaradorligi oshirilgani kuzatilmoqda.

O'zbekistonda tarixiy taraqqiyot davomida hududiy boshqaruv tizimida qator o'zgarishlar yuz bergan. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi modeli ishlab chiqildi va izchillik bilan amalga oshirildi. Mamlakatda davlat boshqaruvini isloh qilishga qaratilgan ma'muriy islohotlar, mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlarini kengaytirish, hududlarni kompleks rivojlantirish masalalari ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Xususan, faqatgina xalqqa xizmat qiluvchi adolatli va zamonaviy davlat barpo etish g'oyasi Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biriga aylandi<sup>1</sup>. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o'tish va mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish kabi islohotlar mamlakat hududidagi jarayonlarni tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Jumladan, XX asr boshlaridan hozirgi davrgacha ma'muriy-hududiy o'zgarishlar mamlakatning tarixiy taraqqiyotidagi o'rnini hamda uning hududlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'sirini tarix fani doirasida tadqiq etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-168-son "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiyashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi "2022-2026-yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 154-son qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: Ўзбекистон, 2024. – Б. 50.

hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi<sup>2</sup>.** O'zbekistonning ma'muriy-hududiy o'zgarishlar tarixi (1924-2023 yy., Xorazm viloyati misolida) mavzusiga oid tarixiy tadqiqotlarni asosan quyidagi uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin: 1) sovet davida yaratilgan tadqiqotlar; 2) mustaqillik yillarida yozilgan adabiyotlar; 3) xorijiy tadqiqotlar. Birinchi guruhga kiritilgan asarlar Sovet davlatining kommunistik mafkurasiga asoslanib yozilgan bo'lsada, turli manbalarga boyligi bilan ahamiyatga ega. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda mavzuning ayrim jihatlarini tahlil etishga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, ular ikkinchi guruhga oid adabiyotlarni tashkil etadi. Tanlangan mavzuning ayrim aspektlari xorijiy adabiyotlarda ham tahlil etilgan, ularda asosan sobiq Ittifoq miqyosidagi, shu jumladan, O'zbekistondagi jarayonlar aks etadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Urganch davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishi rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Xorazm viloyatida 1924-2023-yillardagi ma'muriy-hududiy o'zgarishlarning dinamikasini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilaridan iborat:

Sovet davri va mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ma'muriy-hududiy o'zgarishlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini tadqiq etish;

Sovet davlatini rayonlashtirish siyosati va ma'muriy-hududiy o'zgarishlarning manbalarda aks etishini ko'rsatish;

muammoning tarixshunosligini tahlil etish;

Xorazm okrugidagi ma'muriy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ochib berish;

1938-1960-yillarda Xorazm viloyati ma'muriy-hududiy bo'linishini ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kontekstida ko'rsatib berish;

XX asrning 60-80-yillarida Xorazm viloyatida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning hududiy muammolari haqida ma'lumotlar berish;

mustaqillik yillarida viloyatdagi ma'muriy-hududiy islohotlarni tahlil etish;

Yangi O'zbekiston sharoitida Xorazm viloyati: hududiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish.

**Tadqiqotning obyektini** sovet davri va mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ma'muriy-hududiy islohotlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida Xorazm viloyatida 1924-2023-yillardagi ma'muriy-hududiy islohotlarning hudud ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri tanlab olingan.

---

<sup>2</sup> Muammoning o'rganilganlik darajasi dissertatsiyaning I bobida batafsil yoritilgan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, obyektivlik, tizimli tahlil, statistik ilmiy tadqiqot kabi metod va usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Sovet davlatining rayonlashtirish siyosati natijasida respublika markazidan uzoqda, uning shimoliy g'arbiy qismida joylashgan 7 ta tuman Xorazm okrugi tarkibiga kiritilgani, bu davrda okrug Xorazm vohasining markaziy qismini egallagan bo'lib, O'zbekistonning o'sha paytdagi yagona eksklavi bo'lganligi, okrugga boruvchi temir yo'l bo'lmaganligi sababli nafaqat tumanlarda, balki shaharlarda ham sanoat rivojlanmaganligi, mamlakatni industrilashtirish siyosati ta'sirida Xorazmda sanoat o'zgarishlari yuz bera boshlangani, shuningdek, "yoppasiga jamoalashtirish" shiori ostidagi jarayonlar keskin tus olganligi aniqlangan;

Sovet davrida "sotsialistik" jamiyat qurilishiga yo'naltirilgan iqtisodiy va ijtimoiy tamoyillarga asoslangan holda bir necha bosqichda ma'muriy-hududiy o'zgarishlarning to'liqini yuz berib, ularning yetarlicha ilmiy-iqtisodiy asoslarga ega bo'lmaganligi sababli ma'muriy-hududiy birliklarning ba'zan yiriklashtirilishi, kichik hududlarga bo'linishi, yoki qayta o'zgartirilishi kabi jarayonlarning yuz berishi hududlarda byudjet harajatlarini ortiqcha sarflanishiga sabab bo'lganligi dalillangan;

XX asrning 50–80-yillaridagi Xorazm viloyatida yuz bergan ma'muriy-hududiy o'zgarishlarda Sovet Hukumatining markaziy boshqaruvni mustahkamlashga yo'naltirilgan siyosati bilan bir qatorda "Markaz" manfaatlaridan kelib chiqqan holda hududiy rivojlanish jarayonlari (aholining o'sishi va joylashishining kengayishi, mehnat resurslarining ko'payishi, hududlarni elektrlashtirilishi, yangi yerlarni o'zlashtirilishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi) ham muhim rol o'ynaganligi isbotlangan;

Mustaqillikdan so'ng O'zbekistondagi institutsional o'zgarishlar doirasida ma'muriy-hududiy bo'linish sifat jihatidan yangi – bozor munosabatlariga muvofiq keladigan bosqichga o'tganligi, bu jarayonda milliy qonunchilik tizimining shakllantirilishi va mustahkamlanishi asosiy o'rin tutgani, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda yangi ma'muriy-hududiy birliklarning tashkil etilishi, davlat va xo'jalik boshqaruvining yangi shakllari vujudga kelishi kabi omillarning roli Xorazm viloyati misolida asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqot davomida O'zbekistonning 1924-2023-yillardagi tarixiy rivojlanish bosqichlaridagi ma'muriy-hududiy o'zgarishlar bilan bog'liq holda Xorazm okruidagi ma'muriy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, sovet davrida va mustaqillik yillarida Xorazm viloyati hududiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq yangi ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritilgan;

arxiv hujjatlari, qonunchilik hujjatlari, rasmiy statistik materiallar, davriy matbuot materiallari, zamonaviy tarixiy tadqiqotlarni qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish jarayonida Xorazmda ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, ijtimoiy taraqqiyot hamda ma'muriy-hududiy o'zgarishlar o'rtasidagi bog'liqlik masalalari qiyosiy o'rganildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada tarix va boshqa fanlarda qo'llanilgan ilmiy yondashuv va usullar asosida arxiv manbalaridan, Xorazm

viloyatida istiqomat qilgan va faoliyat yuritgan olimlar hamda mutaxassislarining kitob va maqolalaridan, davriy matbuot materiallaridan foydalanilgan bo‘lib, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekistondagi ma‘muriy-hududiy o‘zgarishlar tarixi haqidagi ilmiy tasavvurlarni yanada chuqurlashtirishga hamda mazkur muammoga oid nazariy xulosalarni takomillashtirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undan bugungi kunda O‘zbekistonda ma‘muriy-hududiy islohotlar hamda hududlarni kompleks rivojlantirish haqida ilmiy izlanishlar olib borishda, shuningdek, oliy ta‘lim muassasalari, akademik litseylar va kasb-hunar maktablarida darslik va o‘quv qo‘llanmalarni tayyorlashda davlat dasturlarining bajarilishida xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot davomida o‘rganishlardan kelib chiqib, olingan ilmiy xulosa va natijalar hamda takliflar asosida:

Sovet davlatining rayonlashtirish siyosati natijasida respublika markazidan uzoqda, uning shimoliy g‘arbiy qismida joylashgan 7 ta tuman Xorazm okrugi tarkibiga kiritilgani, bu davrda okrug Xorazm vohasining markaziy qismini egallagan bo‘lib, O‘zbekistonning o‘sha paytdagi yagona eksklavi bo‘lganligi, okrugga boruvchi temir yo‘l bo‘lmaganligi sababli nafaqat tumanlarda, balki shaharlarda ham sanoat rivojlanmaganligi, mamlakatni industrilashtirish siyosati ta‘sirida Xorazmda sanoat o‘zgarishlari yuz bera boshlangani, shuningdek, “yoppasiga jamoalashtirish” shiori ostidagi jarayonlar keskin tus olganligi ilmiy-tahliliy ma‘lumotlardan “O‘zbekiston” teleradiokanalida efirga uzatilgan “Tarix ko‘zgusi”, “Ta‘lim va taraqqiyot” dasturlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 3-iyindagi 05-09-799-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu ma‘lumotlar mavzuga oid masalalarni teletomoshabinlarga keng qamrovda yetkazib berish imkonini bergan;

Sovet davrida “sotsialistik” jamiyat qurilishiga yo‘naltirilgan iqtisodiy va ijtimoiy tamoyillarga asoslangan holda bir necha bosqichda ma‘muriy-hududiy o‘zgarishlarning to‘lqini yuz berib, ularning yetarlicha ilmiy-iqtisodiy asoslarga ega bo‘lmaganligi sababli ma‘muriy-hududiy birliklarning ba‘zan yiriklashtirilishi, kichik hududlarga bo‘linishi, yoki qayta o‘zgartirilishi kabi jarayonlarning yuz berishi hududlarda byudjet harajatlarini ortiqcha sarflanishiga sabab bo‘lganligiga oid natijalardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2024-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo‘nalishida belgilangan “Milliy g‘oya targ‘ibotini kuchaytirish, jamiyatda sog‘lom mafkura, yangi ma‘naviy makon, ma‘rifatli jamiyatni barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar” 17-bandi “Ilmiy metodologik jihatdan asoslangan, tarixiy tajriba va zamonaviy tahlillar hamda yuksak maqsadlarni o‘zida mujassamlashtirgan “Kuchli ma‘naviyat bilan Yangi O‘zbekiston sari” nomli yangi ilmiy-ommabop qo‘llanmaning konsepsiyasini ishlab chiqish” mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 4-iyundagi 10/325-sonli dalolatnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi mamlakatimizda

ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining samaradorligini mustahkamlashga xizmat qilgan;

XX asrning 50–80-yillaridagi Xorazm viloyatida yuz bergan ma'muriy-hududiy o'zgarishlarda Sovet Hukumatining markaziy boshqaruvni mustahkamlashga yo'naltirilgan siyosati bilan bir qatorda "Markaz" manfaatlaridan kelib chiqqan holda hududiy rivojlanish jarayonlari (aholining o'sishi va joylashishining kengayishi, mehnat resurslarining ko'payishi, hududlarni elektrlashtirilishi, yangi yerlarni o'zlashtirilishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi) ham muhim rol o'ynaganligi haqidagi tahliliy ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Xorazm viloyati boshqarmasining soha hodimlarining malakasini oshirishda foydalanilgan. (Kadastr agentligi Xorazm viloyati boshqarmasining 2025-yil 22-maydagi 05/711-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalari tinglovchilar, shuningdek, tadqiqotchilarni mavzu bilan keng tanishtirishga xizmat qilgan;

Mustaqillikdan so'ng O'zbekistondagi institutsional o'zgarishlar doirasida ma'muriy-hududiy bo'linish sifat jihatidan yangi - bozor munosabatlariga muvofiq keladigan bosqichga o'tganligi, bu jarayonda milliy qonunchilik tizimining shakllantirilishi va mustahkamlanishi asosiy o'rin tutgani, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda yangi ma'muriy-hududiy birliklarning tashkil etilishi, davlat va xo'jalik boshqaruvining yangi shakllari vujudga kelishi kabi omillarning roli Xorazm viloyati misolida asoslab berilgan tahliliy ma'lumotlardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining IV yo'nalishida belgilangan "Vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlari" 18-bandi "Yoshlarda yuksak vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini rivojlantirish, harbiylar, vatan himoyachilariga hurmat uyg'otish, Vatanni himoya qilish eng sharaflı burch ekanligini keng targ'ib qilish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni yo'lga qo'yish" mavzusida o'tkazilgan targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 4-iyundagi 10/325-sonli dalolatnomasi). Ilmiy natijaning qo'llanilishi yoshlarda tarixni puxta o'rganish va undan saboq chiqarish, ularda Vatanga muhabbat hissini uyg'otishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijasida olingan xulosa va takliflar 4 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro konferensiya va 2 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy nashrlarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilova qismlaridan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 141 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganganlik darajasi ochib berilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi hamda ilmiy va amaliy ahamiyati tavsiflangan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, unda Sovet davri va mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma‘muriy-hududiy o‘zgarishlarning tashkiliy-huquqiy asoslari, Sovet davlatidagi rayonlashtirish siyosati va ma‘muriy-hududiy o‘zgarishlarning manbalarda aks etishi, muammoning tarixshunosligi masalalari tahlil qilingan.

Ma‘lumki, Sovet hukumati O‘rta Osiyoda to‘la hukmronlikni o‘rnatish, o‘lkadagi tabiiy boyliklarga egalik qilish, mintaqani milliy - hududiy jihatdan bo‘lib tashlash orqali hukmronlik qilish maqsadida 1920-yildan keyin milliy chegaralanish masalasini kun tartibiga qo‘ya boshladi. RKP (b) MQ Siyosiy byurosining 1924-yil 11-oktyabrda qabul qilingan qarorida: “Yangi tashkil etilgan respublikalarning chegaralarini belgilash va ularni tashkil etish bo‘yicha barcha partiyaviy ishlarga rahbarlik qilish Markaziy Qo‘mitaning O‘rta Osiyo byurosiga yuklansin” deb belgilangan<sup>3</sup>.

1924-yil 27-oktyabrda Butunittifoq Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining ikkinchi chaqiriq 2-sessiyasida O‘rta Osiyoda milliy respublikalar tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilingan<sup>4</sup>. Shunday qilib, 1924-yil sentyabr–oktyabr oylarida O‘rta Osiyoda o‘tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish O‘rta Osiyo sovet respublikalari, RSFSR va SSSRning oliy organlari tomonidan qonuniy kuchga kirdi.

Ma‘muriy-iqtisodiy rayonlashtirishning amalga oshirilishi munosabati bilan 1926-yil 29-sentyabrda O‘zbekistonda 1924-yilda tashkil etilgan ma‘muriy-hududiy bo‘linish tugatilib, ularning o‘rniga 10 okrug ( Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent, Andijon, Qo‘qon, Xo‘jand, Buxoro, O‘rta Zarafshon, Samarqand), 1 avtonom respublika (Tojikiston ASSR), 87 tuman va 1746 ta qishloq fuqarolar yig‘ini tashkil etilgan. Biroq, 1930-yilda okruglarga bo‘linishlar ham bekor qilindi.

1936-yildagi SSSR Konstitutsiyasining 28-moddasida “ittifoq respublikalaridagi viloyat, o‘lka ma‘muriy-hududiy tuzilishi masalalarini hal etish ittifoq respublikalari vakolatiga kiradi”, - degan norma belgilab qo‘yildi<sup>5</sup>. Shu paytdan boshlab yuqori bo‘g‘in hududiy birliklarining ma‘muriy-hududiy tuzilishi shakllanishining dastlabki ko‘rinishlari kuzatila boshladi. 1938-yil 15-yanvarda O‘zbekistonda Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlari tashkil qilindi.

<sup>3</sup> РГАСПИ, 17-фонд, 3-список, 468-дело, С-3.

<sup>4</sup> Резолюция II сессии Центрального Исполнительного Комитета СССР 2-го созыва по вопросу о размежевании Советских республик в Средней Азии и о вхождении Узбекской ССР и Туркменской ССР в состав СССР. 27 октября 1924 г. //Собрание законов и распоряжений Рабоче-крестьянского правительства Союза Советских Социалистических Республик. Отд. 1. – Москва: 1924-1937. – С. 253-256.

<sup>5</sup> ГАРФ. Конституция СССР 1936 г. <https://statearchive.ru/465>

1950-yillardan boshlab ma'muriy-hududiy tuzilishni takomillashtirishga qaratilgan navbatdagi islohotlar o'tkazildi. Shuningdek, iqtisodiy hududiy rayonlashtirish joriy etildi, bu esa hududlarning iqtisodiy rivojlanishini muvofiqlashtirishga qaratilgan edi. Ba'zi birliklarni yiriklashtirish orqali markazlashtirilgan boshqaruvni yaxshilashga harakat qilindi<sup>6</sup>.

1977-yilgi SSSR Konstitutsiyasi ittifoq respublikalarining o'z ma'muriy-hududiy tuzilishini belgilash vakolatlarini tasdiqladi. Xususan, 79-moddada: "Ittifoq respublikasi o'zining o'lka, viloyat, okrug va tuman bo'linmalarini belgilaydi hamda ma'muriy-hududiy tuzilishga oid boshqa masalalarni hal etishi" belgilangan edi<sup>7</sup>. Ammo amalda respublika vakolatlari markaziy hokimiyat tomonidan cheklangan edi.

O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan 1990-yil 20-iyunda e'lon qilingan "Mustaqillik deklaratsiyasi"ning 2-bandida "O'zbekiston SSRning davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo'yilmay turib o'zgartirilishi mumkin emas" degan qoida mustahkamlanib qo'yildi<sup>8</sup>. 1991-yil 31-avgustda "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi<sup>9</sup>. Uning 3-moddasiga muvofiq: "O'zbekiston Respublikasi to'la davlat hokimiyatiga ega, o'zining milliy-davlat va ma'muriy hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilaydi"gan bo'ldi<sup>10</sup>.

1991-yil 20-noyabrda "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishiga doir masalalarni hal qilish tartibi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi<sup>11</sup>. Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga oid qoidalar aniq belgilab qo'yildi<sup>12</sup>.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi 276-I-sonli Qonuni 11 ta bob, 30 ta moddadan iborat bo'ldi<sup>13</sup>.

2020-yil 28-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi O'RQ-635-son Qonun<sup>14</sup> avvalgi qonunning yangi, yanada to'liq tahriridan iborat. 2023-yilda esa Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi<sup>15</sup>. Uning 127-moddasiga ko'ra, mahalla, qishloq va ovullardagi fuqarolar yig'ilishlari o'zini o'zi boshqarish organlari hisoblanadi va ular mahalliy ahamiyatga ega masalalarni fuqarolar manfaatlaridan kelib chiqqan holda hal qilishga haqlidir.

Dissertatsiyada qayd etilishicha, tarixiy manbalarda keltirilgan axborot materialini tanqidiy tahlil qilish, taqqoslash va tizimlashtirish ma'muriy-hududiy

<sup>6</sup> Круглов В.Н. "Административно-территориальное деление и экономическое районирование СССР: замыслы и реализация (1918 – первая половина 1960-х годов)", – Москва: 2014.

<sup>7</sup> Конституция СССР 1977 г. <https://docs.cntd.ru/document/901817660>

<sup>8</sup> Мустақиллик Декларацияси <https://www.lex.uz/docs/185391>

<sup>9</sup> Конституциямизнинг яратилиши тарихи [https://constitution.uz/uz/pages/Konstitusiyamizning\\_yaratilishi](https://constitution.uz/uz/pages/Konstitusiyamizning_yaratilishi)

<sup>10</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1991 й., 11-сон, 246-модда <https://lex.uz/acts/127899>

<sup>11</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 йил, – № 9, 340-модда

<sup>12</sup> "Халқ сўзи" газетаси, 1992 йил 15 декабрь, 243 (494)-сон

<sup>13</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 йил, – № 9, 139-модда

<sup>14</sup> Халқ сўзи газетаси, 2020 йил 28 август.

<sup>15</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. <https://lex.uz/docs/-6445145>

o'zgarishlarning murakkab jarayonini obyektiv yoritish uchun representativ asos yaratish imkonini beradi. Tadqiqot ishi quyidagi manbalarga asoslanadi:

1. Arxiv hujjatlari: 1.1. O'zbekiston Milliy arxivining hujjatlari. 1.2. Xorazm viloyati davlat arxivi hujjatlari. 1.3. Rossiya Federatsiyasi Davlat arxivining (ГАРФ) hujjatlari. Xususan, Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumi huzuridagi Ma'muriy komissiyaning 1918-1938-yillardagi to'plamlari, shu jumladan, SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining farmonlari, qarorlari, sirkulyarlari va ko'rsatmalari, Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi huzuridagi Ma'muriy komissiya va rayonlashtirish komissiyasi majlislarining bayonnomalari. 1.4. Rossiya Davlat iqtisodiyot arxivi (РГАЭ) hujjatlari - RSFSR Markaziy statistika boshqarmasining to'plami, shu jumladan 1913-1941, 1951-1957 yillarda ma'muriy-hududiy bo'linishlardagi o'zgarishlar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar, 1919-1922, 1926, 1939, 1959, 1979-yillardagi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari.

2. Qonunlar to'plamlari, SSSR qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari bazasining materiallari.

3. SSSR va O'zbekiston SSRning ma'muriy-hududiy bo'linishi bo'yicha ma'lumotnomalari, ensiklopediya materiallari.

4. SSSR va O'zbekistonning ma'muriy-hududiy bo'linishining turli yillardagi nashr etilgan geografik xaritalari.

5. Mustaqil manbalar guruhida davriy matbuotdan katta hajmdagi ma'lumotlar to'plangan. Mahalliy nashrlardagi milliy masalalarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ahamiyatini ko'rsatuvchi boy faktik materiallar.

6. Xotiralar. Ular bizga o'z mualliflarining ichki dunyosini ochishga, og'ir tarixiy vaziyatdagi xatti-harakatlarining sabablarini tushunish va to'g'ri baholash imkonini beradi.

Dissertatsiyada Sovet davlatining rayonlashtirish siyosati va uning Xorazm vohasidagi jarayonlarini manbashunoslik tahlili masalalariga e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda ma'muriy-hududiy o'zgarishlar tarixiga oid tadqiqotlarni davriy nuqtayi nazar hamda kontseptual-uslubiy yondashuvlardan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda guruhlash mumkin: 1) sovet davrida yaratilgan tadqiqotlar; 2) mustaqillik yillarida yozilgan adabiyotlar; 3) xorijiy tadqiqotlar.

Birinchi guruhga oid tadqiqotlarga A.V.Lujin, Surat Abdurazakov, M.X.Hakimov, V.A.Nemsev, R. X.Aminova, A.E. Pasherstnik, K.Yusupov, M.Matkarimov va boshqalarning ishlari kiradi. A.V.Lujinning "Sovet davlatining ma'muriy-hududiy tuzilishi" kitobida ma'muriy-hududiy tuzilishning asosiy tamoyillari sotsialistik davlat boshqaruv tizimini tashkil etishda markaziy o'rin tutishi qayd etilgan<sup>16</sup>. Surat Abdurazakovning doktorlik dissertatsiyasida O'zbekiston SSR misolida ittifoq respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi va uni takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan<sup>17</sup>.

M.X.Hakimovning "O'zbekistonda milliy sovet davlatchiligining rivojlanishi" nomli asarida O'zbekistonning o'tish davri, ya'ni yangi sovet davlatchiligining

<sup>16</sup> Лужин, А.В. Административно-территориальное устройство Советского государства. – Москва: Юридическая литература, 1969. – С.87.

<sup>17</sup> Абдуразаков С.К. Административно-территориальное устройство союзной республики и проблемы его совершенствования (по материалам Узбекской ССР). Дис. ... докт. юрид. наук. – Ташкент, 1989. – С.331.

siyosiy-huquqiy asoslari shakllanayotgan davrdagi rivojlanishining asosiy muammolari tadqiq etilgan<sup>18</sup>. K.Yusupov tadqiqot ishida 1927-1934-yillarda Xorazm viloyatida kolxoz tizimining o‘rnatilishi masalalari<sup>19</sup>, M.Matkarimovning tadqiqotida Xorazmda agrar sohada amalga oshirilgan islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari tahlil qilingan<sup>20</sup>.

Yuqoridagi tadqiqotlar sovet mafkurasi kontekstida yozilgan bo‘lsada, uni tanqidiy ruhda o‘rganish orqali muhim faktik ma‘lumotlarni ko‘rish imkoniyati mavjud.

Ikkinchi guruhga oid tadqiqotlarga O.Normatov, R.Shamsutdinov, X.Yunusova, S.Shadmanova, U.Bekimmetov, N.Mahkamova, V.Fyodorko, Z.Toirova, A.Jumashev, K.Nurjonov, M.Jumaniyozova, Y.Rahmonova va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlari, chop qilgan asar va maqolalari kiradi.

O.Normatov monografiyasida Sovet davlatidagi rayonlashtirish siyosati, birinchi navbatda, sovet hokimiyatining hududlarni markazdan nazorat qilishini kuchaytirish maqsadida o‘tkazilganligi qayd etiladi<sup>21</sup>. Sovet davri tarixiga bag‘ishlangan Xorazm tarixi asarida rayonlashtirish, kolxozlarning tashkil qilinishi, sovet davridagi viloyat xalq xo‘jaligidagi o‘zgarishlar bayon etilgan<sup>22</sup>. Tarixchi olimlar jamoasi tomonidan hammualliflikda yaratilgan “O‘zbekiston tarixi (Xorazm tarixi). XI-jild” kitobida Xorazmning madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixi uzviy xronologik izchillikda yoritilgan<sup>23</sup>.

U.Bekimmetovning tadqiqot ishida zo‘rluk bilan tashkil etilgan kolxozlardagi og‘ir vaziyat hamda sovet mustamlakachilik siyosatining paxta yakka hokimligini o‘rnatishi qishloq fojiasi va iqtisodiy tanazzulni boshlab berganligi qayd etilgan<sup>24</sup>.

Prof. X.Yunusova o‘z maqolasida O‘zbekistonning umumittifoq manfaatlari yo‘lida xizmat qiluvchi qishloq xo‘jalik tarmoqlari bu yerda yangi paxtachilikka ixtisoslashgan kolxoz va sovxozlarni qurishni, muntazam “yangi yerlarni” o‘zlashtirib borishni taqozo etganini yozadi.<sup>25</sup>

Uchinchi guruhga oid tadqiqotlarga I.N.Ivshina, E.Karr, N.I.Grachev, K.B.Korjenevskiy, Y.P.Mamischeva, O.K.Kaykova, T.O.Uvaliev, A.Xalid, A.Y.Saran va boshqalarning ishlari misol bo‘ladi.

N.I. Grachevning fikriga ko‘ra, Sovet davlatining belgilari shundan dalolat beradiki, SSSR o‘z mavjudligi davomida federativ markazlashgan imperiyaning klassik namunasi bo‘lib kelgan<sup>26</sup>. O.V.Shulginaning dissertatsiyasida XX asrda

<sup>18</sup> Хакимов М.Х. Развитие национальной советской государственности в Узбекистане. – Ташкент, 1965. – С.112.

<sup>19</sup> Юсупов К. Победа колхозного строя в Хорезмской области Узбекской ССР (1927-1934 гг.). Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. канд. ист. наук. – Ташкент, 1968. – С.24.

<sup>20</sup> Маткаримов М.М. Аграрные преобразования в Хорезме и их социально-экономические последствия. Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. канд. экон. наук. – Ташкент, 1976. – С.28.

<sup>21</sup> Норматов О.М. Ўрта Осиёда ўтказилган районлаштириш сиёсатининг Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ҳаётига таъсири. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2022. – Б.142

<sup>22</sup> Хоразм тарихи. II– жилд (1920– 1991 йиллар). – Урганч: Хоразм, 1997. – Б.307.

<sup>23</sup> Ўзбекистон тарихи (Хоразм тарихи). 11-жилд. / Бош муҳаррир: А.С.Сагдуллаев. – Тошкент, 2023. Б.123.

<sup>24</sup> Бекимметов У. Советларнинг Хоразмда амалга оширган коллективлаштириш сиёсати ва унинг оқибатлари (1929-1959 йиллар). Тарих ф.ф.д. дисс. Автореф., – Андижон, 2022. – Б.52.

<sup>25</sup> Юнусова Х. Э. XX аср 60-80 йиллари Совет давлати ягона халқ хўжалигида Ўзбекистон: қишлоқ хўжалиги, саноатни ривожлантиришнинг экологик ҳолатга таъсири ҳақида баъзи мулоҳазалар. // Ўтмишга назар, – №12, 2021. – Б. 9-17.

<sup>26</sup> Грачев Н.И. Форма государственного устройства СССР и его политико-правовая природа // Вестник Уфимского юридического института МВД России, 2022, – № 4 (98). – С. 12-25.

Rossiyadagi ma'muriy-hududiy bo'linishning tarixiy-geografik jihatlari tadqiq etiladi<sup>27</sup>. T.O. Uvaliev va boshqalarning Qozog'istonning XX asrdagi ma'muriy-hududiy tuzilishiga bag'ishlangan maqolasida tarixiy jarayonlar tahlil qilingan bo'lib, u asosan Sovet hokimiyati o'rnatilishidan boshlab mustaqillik davrigacha bo'lgan o'zgarishlarni qamrab oladi<sup>28</sup>. Adib Xalidning "Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR" asarida sovet ideologiyasini milliy chegaralarda tatbiq etish yo'llari haqida gap boradi. Milliy-hududiy taqsimot o'z ahamiyati bo'yicha O'rta Osiyodagi ikkinchi inqilob edi deb yozadi.<sup>29</sup>

Biroq bu tadqiqotlarda Sovet davrida Xorazmdagi ma'muriy-hududiy o'zgarishlar, xususan, Xorazm okrugidagi ma'muriy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, Xorazm viloyati ma'muriy-hududiy bo'linishi, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, mustaqillik yillarida Xorazm viloyatidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Sovet davrida Xorazmdagi ma'muriy-hududiy o'zgarishlar**" deb nomlanib, unda Xorazm okrugidagi ma'muriy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, 1938-1960-yillarda Xorazm viloyati ma'muriy-hududiy bo'linishi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kontekstida tahlil qilingan. Shuningdek, XX asrning 60-80-yillarida Xorazm viloyatida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning hududiy muammolari tadqiq etilgan.

1924-yilning oxiri va 1925-yil boshida O'rta Osiyoda olib borilgan rayonlashtirish va milliy-hududiy chegaralanish siyosati bo'yicha ishlar O'zbekiston SSRning ma'muriy bo'linishi bilan uzviy bog'liq edi. 1925-yilda O'zbekiston SSR tuzilganidan ko'p o'tmay, respublikada viloyatlar shaklidagi hududiy bo'linish joriy etildi. Viloyatlar uyezdlariga, ular o'z navbatida volostlarga bo'lingandi. Ammo, oradan bir yil o'tmay, 1926-yilda viloyat shaklidagi ma'muriy birliklar tugatilib, respublika okruglarga, ular o'z navbatida, tumanlarga bo'lindi.

Yangi ma'muriy bo'linish loyihasi asosida respublikada 7 ta oblast o'rniga 10 ta okrug (Toshkent, Samarqand, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Andijon, Buxoro, Farg'ona va Xo'jand okruglari) tashkil qilindi<sup>30</sup>. Mazkur okruglarda okrug markazlaridan tashqari rayon markazlari bo'lgan 22 ta shahar hamda 4 ta shahar "poselenie"lari ham mavjud edi.<sup>31</sup>

Xorazm okrugi shimol va sharqdan Qoraqalpog'iston avtonom okrugi bilan, janub va g'arbdan Turkmaniston SSR bilan chegaradosh edi. Xorazm okrugi O'zbekiston SSRning o'sha paytdagi yagona eksklavi bo'lgan. U unumdor Xorazm vohasining markaziy qismini egallagan, okrug hududidan Amudaryo oqib o'tgan. Okrugning ma'muriy markazi va eng yirik shahri Xiva edi.

<sup>27</sup> Шульгина О.В. Административно-территориальное деление России в XX веке: историко-географический аспект: Автореф. дис. ... д-ра ист. наук / О.В. Шульгина. – М.: МГПУ, 2005. – С.42.

<sup>28</sup> Увалиев Т.О., Увалиев М.Т., Мирзаев Э.А. Краткий историко-географический обзор административно-территориального устройства Казахстана в XX веке Хабаршы. География сериясы, 2020, ISSN 1563-0234, DOI: <https://doi.org/10.26577/JGEM.2020.v57.i2.01>.

<sup>29</sup> Халид, Адиб. *Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR*. Итака, Нью-Йорк: Cornell University Press, 2015.

<sup>30</sup> O'zbekiston milliy arxivi (O'zMA), R-86-fond, 1 - ro'uxat, 3405 - ish, 181- varaq.

<sup>31</sup> Шадманова С. Ўзбекистон шаҳарлари классификацияси ва типологияси (1917-1941 йиллар) // Ўтмишга назар, – №4, 2020 йил. – Б. 15.

1926-yilda Xorazmda rayonlashtirish siyosatining amalga oshirilishi natijasida yangi tuzilgan Xorazm okrugidagi tumanlar ancha yiriklashtirildi. Ularning soni 22 tadan 10 taga qisqartirildi. Mang‘it, Gurlan, Shovot, Yangi Urganch, G‘azovot, Xiva, Yangiariq, Xonqa, Bog‘ot, Hazorasp tumanlari Xorazm okrugini tashkil etgan tumanlar edi<sup>32</sup>. Rayonlashtirishdan so‘ng qishloq sho‘rolarining soni ko‘paytirildi. 111 ta qishloq sovetlari o‘rniga 187 qishloq sovetlari tashkil topdi. Ularning huquqlari ancha kengaytirildi.

Hududning umumiy maydoni 4315 kvadrat verst edi. Okrug aholisining umumiy soni qariyb 319,2 ming nafarni tashkil etib, shundan 9,5 foizi shahar aholisi, 90 foizdan ortig‘i qishloq aholisini tashkil etgan<sup>33</sup>. Okrugda 3 ta shahar: Xiva, Gurlan Yangi-Urganch va 3 ta shahar tipidagi posyolka: Xonqa, Mang‘it, Hazorasp bor edi. 1 kvadrat verst uchun okrugning jami aholisi zichligi 74 kishini, qishloq aholisining zichligi esa 67 kishini tashkil etgan. Okrug aholisi 54529 ta xonadondan iborat bo‘lib, asosan ariq bo‘ylarida joylashgan edi<sup>34</sup>.

1926-1927-yillarda Gurlan va Yangibozar atroflaridagi 36 ta xo‘jalik qo‘lidan 981 tanob yer, 100 ga yaqin ot, 107 ta xo‘kiz, 19 tuya, 72 chig‘ir, 89 arava, 21 tegirmon, 13 yog‘ juvozi, 71 omoch, 200 ga yaqin o‘roq, 63 ketmon, 5001 pud jo‘hori tortib olindi<sup>35</sup>. Xorazmda majburiy tarzda amalga oshirilayotgan kollektivlashtirish siyosati ko‘plab qarshiliklarga duch keldi. Bu holatda sovet harbiy-siyosiy ma‘muriyati kolxozlarni faqat kuch ishlatish va majburiy choralar vositasidagina tashkil etishga e‘tibor qaratdi<sup>36</sup>.

Xonqa tumanida 1929-yilda Abduvais qishloq sovetida tuzilgan “Namuna” kolxosi mustahkamlanib bordi. Kolxoz tuzilgan yili 4 arava, 2 tuya, 5 ot va 4 juft ho‘kizi bor edi. 1930-yilda aravalar soni 10 taga, tuyalari 4 taga, otlar 16, ho‘kizlar 20 taga yetdi. Kolxozning ekin maydoni ham kengayib, 91,25 tanobdan 206 tanobga yetdi. 1930-yilning 1 choragida Xonqada 13 ta kolxoz tuzildi<sup>37</sup>. Amudaryo bo‘ylaridagi partov va qayir yerlarni o‘zlashtirish hisobiga 1930-yili “Qizil askar” kolxosi tuzildi, unga boshqa joylardan ko‘chib kelgan 72 xonadon birlashtirildi. 1930-yil oxiriga kelib jamoa xo‘jaliklari ixtiyorida 883 gektar (ga) ekin bor edi<sup>38</sup>.

Mamlakatni industrilashtirish siyosati ta‘sirida Xorazmda sanoat ham rivojlana boshladi. Xususan, 1925-yilda Xiva, Hazorasp rayonlarida paxta tozalash zavodlari ishga tushirildi. 1928-1929-yillarda Urganchda yangi paxta tozalash zavodi, 1932-yilda beda urug‘i tozalash zavodi qurildi. Umuman, birinchi va ikkinchi besh yilliklar davomida Xorazmda 24 ta katta sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi<sup>39</sup>.

Jamoalashtirish siyosatining ta‘sirchanligini oshirish maqsadida 1930-yil 23-iyulda SSSR MIQ va XKS yangidan ma‘muriy-hududiy bo‘linishni amalga oshirishni

<sup>32</sup> Хорезмская област. <https://forum.vgd.ru/post/362/112648/p3452977.htm>

<sup>33</sup> O‘zMA, 86-fond, 1-ro‘yhat., 3402-ish, 321-varaq.

<sup>34</sup> Норматов О. Хорезмский округ в период политики районирования в Средней Азии // iScience. Актуальные научные исследования в современном мире. Журнал. Выпуск 2. 2020. – С.85.

<sup>35</sup> Шерзонов М., Нуржонов К., Эшчанова Ш. Янгибозар тарихи. – Урганч: Хоразм нашриёти, 2005. – Б. 66.

<sup>36</sup> Бекмухаммад У. Катагон қурбонлари. – Урганч: Хоразм, 2020. – Б.8-9.

<sup>37</sup> Хоразм viloyat davlat arxivi (XVDA), 199-fond, 1-ro‘yhat, 351-ish, 257-varaq.

<sup>38</sup> Нуржонов К., Жуманиёзова М. Хонқа тарихи: тарихий-публицистик нашр... – Б.81.

<sup>39</sup> Хоразм тарихи.2-жилд. Муаллифлар жамоаси. Масъул муҳаррир М.Матниёзов. – Урганч, 1997. – Б. 84-85.

ko'zda tutuvchi "Okruglarni tugatish to'g'risida"gi qarorni qabul qildi<sup>40</sup>. Yuqoridagi qaror asosida O'zSSR MIQ 1930-yil 17-avgustda okruglarni tugatish haqida qaror qabul qildi<sup>41</sup>.

Okruglar tugatilgach tumanlar bevosita respublikaning bo'ysunuviga o'tkazildi. Shunday qilib, O'zbekiston 71 ta tumanga bo'linib, ular tarkibida 1698 ta qishloq kengashlari tashkil etildi. Ammo, O'zbekistonda rayonlashtirishning amalga oshirilishi hali to'la shakllanib ulgurmagani sharoitida xalq xo'jaligi tizimida bir qator muammolarni yuzaga keldi. Xorazmning markazdan uzoqda joylashganligi bilan bog'liq alohida sharoitni hisobga olgan holda 1932-yil 23-aprelda Xorazm okrugi qaytadan tashkil etildi.<sup>42</sup> Okrug markazi Yangi Urganch (hozirgi Urganch) shahri bo'ldi. Okrug tarkibiga Gurlan, Mang'it, Urganch, Hazoras, Xonqa, Xiva, Shovot va Yangiariq tumanlari kirdi. Tumanlar 144 ta qishloq sovetlariga bo'lingan edi.

Xalq xo'jaligini rivojlantirishga tezkor rahbarlik qilish uchun 1938-yilda yana ma'muriy-hududiy bo'linish amalga oshirildi. SSSR Oliy sovetining 1938-yil 15-yanvardagi yig'ilishi qarori bilan O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi hududida Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm kabi viloyatlar tashkil qilindi.<sup>43</sup>

Ikkinchi jahon urushi butun mamlakatda bo'lganidek, Xorazm oblastidagi kolxozlarda ishchi kuchi, mexanizmlar yetishmasligiga olib kelgan va qishloq xo'jaligini izdan chiqargandi. Natijada bunday og'ir vaziyat urushdan keyingi yillarda ham saqlanib qoldi. Ayniqsa traktorlardan foydalanish talab darajasida bo'lmaganligi va unga kolxoz mulki deya qaralganligi tufayli 1947-yil bahorida chigit ekish muddati 40-45 kunga cho'zilib ketadi<sup>44</sup>.

1950-1952-yillarda Sovet davlatining agrar siyosatidagi kolxozlarni yiriklashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Kolxozlarni birlashtirilishi munosabati bilan butun mamlakatda kolxozlar soni 252 mingtadan 91 mingtaga (2,7 barobarga) kamaydi<sup>45</sup>. Endi kolxozlar avvalgilaridan ancha katta bo'lib, bir necha qishloqlarni o'z ichiga olar edi. Ilgari bitta kolxozga o'rtacha 80 ta xo'jalik to'g'ri kelgan bo'lsa, yiriklashtirilganidan keyin bitta kolxozga 220 ta oila to'g'ri kela boshladi. Har bir kolxoz ixtiyorida o'rtacha 4 ming gektardan ortiq qishloq xo'jalik hududlari bor edi<sup>46</sup>.

1950-yilga kelib, Xorazm viloyatida 413 ta kolxozlar mavjud bo'lib, kichik hududdan iborat kolxozlar mavjud moliyaviy hamda moddiy-texnika imkoniyatlaridan samarali foydalanishga, ishlab chiqarishni rivojlantirishga,

<sup>40</sup> Постановление Центрального исполнительного комитета и Совета народных комиссаров. О ликвидации округов. 23 июля 1930 г. // Собрание законов и распоряжений Рабоче-Крестьянского Правительства СССР за 1930 г. Ч. 2. Отдел первый. – М.: 1931. – С.309

<sup>41</sup> Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, – №5-6, 1992 йил. – Б.43.

<sup>42</sup> Комолов Д.П. Ўзбекистон ССР суд тизимида амалга оширилган таркибий ўзгаришлар (1930-1938 йиллар мисолида) // Ўтмишга назар, – №2, 2021. 4-жилд. – Б.36.

<sup>43</sup> СССР. Верховный Совет. Заседания Верховного Совета СССР. – М.: Изд. Верховного Совета СССР, 1938-1991. Первая сессия Верховного Совета СССР [1-го созыва], (12-19 января 1938 г.): стенографический отчет. 1938. – 207, [1] с. – С. 198.

<sup>44</sup> Бекимметов У. Советларнинг Хоразмда амалга оширган коллективлаштириш сиёсати ва унинг оқибатлари (1929-1959 йиллар). Тарих ф.ф.д. дисс. Автореф., – Андижон, 2022. – Б. 22.

<sup>45</sup> Тожибоев Ф. 1945-1953 йилларда Совет ҳукуматининг Ўзбекистондаги аграр сиёсати // Academic Research in Educational Sciences, Volume 2, Issue 12, 2021. – Б. 759.

<sup>46</sup> Советское крестьянство. Краткий очерк истории. 1917–1970. – Москва: Наука, 1973. – С. 430–431.

irrigatsiya-melioratsiya qurilishlarini jadallashtirishga to'siq bo'lib turgandi. Shu tufayli ham muqobillashtirish o'tkaziladi va oblastda kolxozlar soni 1951-yilda 213 taga kamaydi. Muqobillashtirish keyingi yillarda ham davom ettirildi va 1955-yilga kelib viloyatdagi kolxozlar soni 165 tani tashkil qilardi<sup>47</sup>.

1957-yilda Mang'it tumani Qoraqalpog'iston ASSR tarkibiga o'tkazildi, bu bilan Xorazm viloyatida hududiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1957-yil 18-dekabrda "Qoraqalpoq ASSR, Xorazm, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarining ayrim tumanlarini birlashtirish to'g'risida"gi 985-sonli farmoni bu jarayonlar uchun asos bo'ldi<sup>48</sup>. Mang'it tumani Qoraqalpog'istonga o'tgandan keyin uning o'rniga Amudaryoning chap qirg'og'idagi Cholish pristani va atrofidagi yerlar Urganch tumani tassarufiga o'tkazildi. Natijada daryo yaqinida yerlarni dehqonchilikka moslashtirish, kanallar qazish, zax suvlarni qochirish kollektorlari qazish ishlari amalga oshirilgan.

Ma'muriy-hududiy o'zgarishlar doirasida 1959-yilda Bog'ot va Yangibozor tumanlari tugatildi (keyinchalik, 1963-yilda Qo'shko'pir, Urganch va Xonqa tumanlari tugatilgan). Bu tumanlarning tugatilishi iqtisodiy va ma'muriy zaruratlar bilan bog'liq bo'lgan.

SSSRning ma'muriy-hududiy bo'linishini isloh qilish 1962-1963-yillarda xalq xo'jaligini boshqarish tizimini isloh qilish doirasida amalga oshirildi. Islohotlar davrida Sovet Ittifoqi tarkibidagi ma'muriy tuzilmalar sezilarli darajada kengaytirildi, ular tarkibida sanoat va qishloq okruglari shakllantirildi (o'tgan davrda tumanlarning umumiy soni – 1962-yil oxiri – 1963-yil boshida - 3421 tadan 1711 taga qisqartirildi; bir qator viloyatlarda sanoat tumanlari tashkil etildi). KPSSning mahalliy organlari va ishchilar deputatlari kengashlari tegishli iqtisodiy rayonlarni boshqarish uchun sanoat va qishloq xo'jaligiga bo'lindi, bu esa partiya-sovet boshqaruvining mahalliy organlari sonini ikki baravar oshirdi. Islohot tezda samarasiz bo'lib chiqdi va 1964-yil dekabr – 1965-yil yanvar oylarida orqaga qaytarildi. Sanoat va qishloq tumanlari tugatilib, oddiy ma'muriy tumanlar tiklandi.

1966-1970-yillarda viloyatda 11,5 ming **ga** yangi yerlarni o'zlashtirish, irrigatsiya va melioratsiya ishari hisobiga sug'oriladigan maydonlarni 25,0 ming gektarga kengaytirish vazifasi belgilandi. Buning uchun esa 35,5 ming **ga** maydonlar zarur edi<sup>49</sup>.

1960-yillardan boshlab, respublika va uning hududlari qayta tiklanish jarayonini boshdan kechirdi. Xorazm viloyatida ham ba'zi tugatilgan tumanlar qayta tashkil etildi. O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining 1964-yil 31-dekabrda "Qoraqalpoq ASSR, Xorazm, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarining ayrim tumanlarini birlashtirish to'g'risida"gi 985-sonli farmoniga muvofiq Mehnatkashlar deputatlari Xorazm viloyati Soveti Ijroiya qo'mitasining 1965-yil 21-yanvardagi qarori bilan Xorazm viloyati tarkibida Urganch tumani tashkil etildi<sup>50</sup>. 1967-yilda Qo'shko'pir tumani, 1970-yilda Bog'ot tumani, 1973-yilda Xonqa tumani qayta tiklandi.

1980-yillarga kelib, Xorazm viloyatida yana bir qator ma'muriy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Viloyat ma'muriy birliklari hududning kengligi, mavjud xo'jaliklar

<sup>47</sup> Xorazm viloyati hokimligi arxivi (XVXA). 1-fond, 3-ro'yxat, 86-ish, 38-varaq.

<sup>48</sup> XVDA. 1-fond, 10-ro'yhat., 95-ish, 4-varaq.

<sup>49</sup> XVDA. 276-fond, 1-ro'yxat, 371-ish, 35-varaq.

<sup>50</sup> XVDA. 1-fond, 1-ro'yxat, 213-ish, 72-varaq.

mehnat resurslari sonining ko'pligini inobatga olib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini mustahkamlash hamda aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, boshqaruvni ishlab chiqarishga yaqinlashtirish maqsadida Xalq deputatlari Xorazm viloyati Soveti Ijroiya qo'mitasining 1981-yil 1-oktyabrdagi "Xorazm viloyati tarkibida Yangibozor tumanini tashkil etish to'g'risida"gi № 489-qarori qabul qilinadi<sup>51</sup>. 1982-yilda Xonqa posyolkasi Xonqa shahri deb e'lon qilindi<sup>52</sup>.

Xorazm viloyati aholisi soni o'sishi va ekinzorlarning qisqarib borishi natijasida tashkilotlarning e'tiborini mazkur masalaga qaratishga harakat qilindi. Natijada Respublika hukumatining 1982-yil 21-iyundagi qaroriga asosan Buxoro viloyatining Romitan tumaniga qarashli 100 ming ga va Qoraqalpog'istonning To'rtko'l tumanidan 50 ming ga yer maydoni Xorazm viloyatiga berildi. "Tuproqqal'a" deb nom olgan yangi hududda "Xonqa", "Hazorasp", "Gurlan", "Xiva" nomli davlat xo'jaliklari tashkil etildi. Kelgusida "Tuproqqal'a agrofirmani" tarkibida Jaloliddin Manguberdi, Yusuf Hamadoniy, "Manoq", "Mustaqillik" nomli yangi shirkat xo'jaliklari tashkil etildi<sup>53</sup>.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Mustaqillik yillarida Xorazm viloyatidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar**" deb nomlanadi. Bobda 1991-2016-yillarda viloyatdagi ma'muriy-hududiy islohotlar, Yangi O'zbekiston sharoitida Xorazm viloyati hududiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

1992-yil 8-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining "Xorazm viloyatidagi Gurlan, Xonqa, Shovot, Qo'shko'pir va Hazorasp shaharlarini shahar posyolkalari turkumiga o'tkazish to'g'risida"gi 583-XII-sonli qarori qabul qilindi. Unga muvofiq Xalq deputatlari Xorazm viloyat Soveti rayosati va xalq deputatlari Gurlan, Xonqa, Shovot shaharlari hamda Qo'shko'pir, Hazorasp rayon Sovetlarining iltimoslari qondirilib, viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar: Gurlan rayonining ma'muriy markazi Gurlan, Xonqa rayonining ma'muriy markazi Xonqa va Shovot rayonining ma'muriy markazi Shovot shaharlari, va shuningdek, rayonga bo'ysunuvchi shaharlar: Qo'shko'pir rayonining ma'muriy markazi Qo'shko'pir va Hazorasp rayonining ma'muriy markazi Hazorasp shaharlari shahar posyolkalari turkumiga o'tkazildi.

1992-yil 3-iyulda qabul qilingan "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonun va boshqa normativ hujjatlar asosida qishloq xo'jaligida yangi huquqiy tartib-qoidalar joriy etildi<sup>54</sup>. Ushbu o'zgarishlar ko'p ukkladli iqtisodiyotni shakllantirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hamda fermerlik va shaxsiy tomorqa xo'jaliklarini kengaytirishga imkon yaratdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1992-yilda respublikamiz hududida umumiy hisobda 1100 dan ortiq sovxoz hamda taxminan 900 ga yaqin kolxoz faoliyat yuritgan<sup>55</sup>. Dastlabki bosqichda kolxoz va sovxozlar butunlay tugatilmagan bo'lib, 1993–1998-yillar oralig'ida ularning nomi o'zgartirilib, "shirkat xo'jaliklari" deb yuritila

<sup>51</sup> XVDA. 1-fond, 1-ro'yhat, 1816-ish, 1-varaq.

<sup>52</sup> Нуржонов К., Жуманиёзова М. Хонқа тарихи: тарихий-публицистик нашр... – Б. 106.

<sup>53</sup> Олимов Р. Янги хўжаликлар // Хоразм ҳақиқати, 1998 йил, 29 апрел; Ражабов О. Тупроққалъа сарҳадларида // Хоразм ҳақиқати, 1998 йил, 16 май.

<sup>54</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 5–6-son, 88-modda. – Toshkent, 1998. – B.163.

<sup>55</sup> Sharipov Sh. O'zbekistonda xususiy lashtirish jarayoni tarixi (1991–2022 yy.)... – B.16.

boshlandi<sup>56</sup>. Qishloqlarda aynan shirkat xo‘jaliklari aksariyat aholi qatlamining ish bilan bandligini ta‘minlar edi. 1998-yildan fermerlikka o‘tilishi natijasida shirkat xo‘jaliklari sanatsiyaga tortila boshlandi<sup>57</sup>. Bu davrda kolxoz yerlari asta-sekin fermerlarga ajratib berilgan, xo‘jaliklarning mol-mulklari esa xususiylashtirish jarayoniga kiritilgan.

2009-yilning “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” deb e‘lon qilinishi respublika qishloq joylariga davlat miqyosida e‘tibor qaratishda, ulardagi turmush tarzini shaharlarga yaqinlashtirish, shahar va qishloq o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirib borishda muhim omil bo‘ldi. Respublikamizda bu borada maxsus Davlat dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dastur doirasida respublikaning 966 ta qishloq aholi manzilgohlariga (aholi soni 2000 kishidan ortiq, kelajakda istiqbolli sanalgan qishloqlar) shaharcha maqomi berilishi mamlakat, ayniqsa, qishloq urbanizatsiya darajasining keskin oshishiga olib keldi.

Yangi shaharchalarning 23,4 foizi respublikaning eng qishloqlashgan hududi hisoblangan Janubiy O‘zbekiston viloyatlarida joylashgan (Qashqadaryoda 119 ta va Surxondaryoda 107 ta) mintaqaga to‘g‘ri keladi. Toshkent va Samarqand viloyatlarining har birida taxminan 80 ga yaqin, Buxoroda 60 ta, Xorazmda 51 ta qishloqlar shaharcha maqomiga ega bo‘ldi.

Yangi tashkil etilgan shahar manzilgohlarida jami 192,5 ming kishi yoki 2008-yil qishloq aholisining 16,4 foizi birdaniga “shaharlik” bo‘lib qoldi. 2009-yilda Xorazmda 3000 dan ortiq aholiga ega bo‘lgan, 70 ga yaqin QAP mavjud edi. Ularning eng kattalari Qorovul, Shaytonlar, Pirnaxos. Olg‘a, Toma, Sholikor, Turkiston, Qumyop, Bog‘olon, Yangilik, Mustaqillik, Ashxobod, Xayrobod, O‘rtayop, Yuqori qal‘a, Uyg‘ur va boshqalar hisoblanadi (ularning har birida 4000 kishi va undan ziyod aholi yashaydi)<sup>58</sup>.

Quyi Amudaryo mintaqasining qishloq joylari o‘ziga xos xususiyatga ega. 2012-yilda Xorazm viloyatida 561 qishloq aholi punktlari bor bo‘lib, qishloqlar soni nisbatan ko‘p Hazorasp (85), Xiva (83), Urganch (72) va Shovot (65) tumanlarida tashkil etilgan. Qoraqalpog‘iston qishloqlari ko‘proq tarqoq holda tashkil topgan bo‘lsa, Xorazm viloyatida asosan sug‘orma dehqonchilik rivojlangan hududlarda shakllangan<sup>59</sup>.

2014-yilda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi va “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan tumandagi aholi punktlarining tarkibiy qismlari (mahallalar, shohko‘chalar, ko‘chalar, maydonlar, bog‘lar, xiyobonlar)ga nom berish va qayta nomlash maqsadida xalq deputatlari Urganch tumani Kengashining qarori<sup>60</sup> bilan Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining takliflari asosida Xorazm viloyati komissiyasi tomonidan taqdim qilingan geografik obyektlar nomlarining ro‘yxati Respublika toponomika xizmati tomonidan ko‘rib chiqilganligi va shu asosda geografik va kartografiya milliy markazining 2014-yil 10-fevraldagi ekspert xulosasi rahbarlik va ijro uchun qabul

<sup>56</sup> Axmedova U. Kolxoz va Sovxozlarning tugatilishi-qishloq xo‘jaligida haqiqiy yer egasini vujudga kelishining sababchisi // Miasto Przeszłości Kielce, vol. 29. – Krakow, 2022. – B.160.

<sup>57</sup> Салимов Ш. Ўзбекистонда ўтиш даври ижтимоий-демографик жараёнлари: ҳолати ва ўзгаришлар (1991-2016 йй.)... – Б. 23.

<sup>58</sup> Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон қишлоқлари (Қишлоқ жойлар географияси). – Т.: “Fan va texnologiya”, 2009, – Б.212.

<sup>59</sup> Худайберганова Р.Т. Истикболдаги устувор йўналишлари // Ўзбекистон География жамияти ахбороти 40-жилд, 2012 йил. – Б. 111-114.

<sup>60</sup> Хоразм вилояти халқ депутатлари Урганч тумани Кенгашининг қарори, 21.06.2014 йилдаги 28-2-сон <https://lex.uz/docs/2497793?ONDATE=18.08.2016>

qilinib, tumanda geografik ob'ektlar nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlandi<sup>61</sup>. Bunday o'zgarishlar boshqa tumanlarda ham yuz berdi.

Dissertatsiyada Yangi O'zbekiston sharoitida Xorazm viloyati hududiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari ham tahlil qilingan. Xorazm viloyatining ekologik xususiyatlari, ayniqsa, Amudaryo deltasi bilan bog'liq. Uning ekotizimi Amudaryo suvi bilan bog'liq bo'lib, suv resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Amudaryo yaqinidagi tabiiy hududlar ekoturizmni rivojlantirish imkonini yaratadi. Yangibozor va Xonqa tumanlarining qirg'oqlarida ekologik turizm rivojlanishi uchun imkoniyatlar mavjud. Xorazm viloyatida suv resurslari yetishmovchiligi va yerlarning sho'rlanishi jiddiy ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Bu ayniqsa, qishloq xo'jaligi yerlarining sifatini pasaytirishga va hosildorlikning kamayishiga sabab bo'ladi.

Viloyatdagi aholi soni, qishloq va shahar infratuzilmasi, shuningdek, ma'muriy-hududiy bo'linishi holati haqidagi ma'lumotlar davlat boshqaruvi va hududiy rivojlanish jarayonida muhim o'rin tutadi. 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, Xorazm viloyatining umumiy hududi 6,05 ming km<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Viloyat tarkibida 11 ta tuman, 3 ta shahar (2 tasi viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar – Urganch va Xiva), 56 ta shaharcha, 1 ta qishloq fuqarolar yig'ini va 550 ta qishloq aholi punkti mavjud<sup>62</sup>.

Xorazm viloyatining investitsion imkoniyatlari juda katta va rivojlanish potensialiga ega. Avtomobil yo'llari va magistrallarining umumiy uzunligi 2265 km. Ular orqali O'zbekiston, Qozog'iston, Rossiya, Turkmaniston va Eron bilan aloqalar ta'minlanadi. Shuningdek, 128,7 km temir yo'l bor va 3 ta temir yo'l vokzali xizmat qiladi. Urganchda xalqaro aeroport mavjud bo'lib, Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburg, Istanbul, Milan, Parij kabi yirik shaharlarga doimiy parvozlar amalga oshiriladi. Viloyatdagi kichik sanoat zonalar va infratuzilma rivoji xorijiy sarmoyadorlar uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Urganch, Shovot, Urganch va Hazorasp tumanlarida joylashgan kichik sanoat zonalarida 140,000 kv.m maydon ajratilgan va 94 ta loyiha bo'yicha 1191 ta ish o'rni yaratilgan. Ushbu zonalarda sarmoya miqdoriga qarab soliqlardan va davlat fondlariga majburiy to'lovlardan ozod qilish imtiyozlari beriladi<sup>63</sup>.

So'nggi yillarda butun mamlakatimizda bo'lgani kabi Xorazm viloyatida ham ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Qishloq xo'jaligi, yirik sanoat korxonalar, transport-kommunikatsiya tizimi, kichik biznes salohiyati tufayli Xorazm viloyati mamlakatimiz taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi "2022-2026-yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 154-son qarori qabul qilindi<sup>64</sup>. Hujjat bilan Xorazm viloyati

<sup>61</sup> Хоразм вилояти халқ депутатлари Урганч тумани Кенгашининг қарори // “Урганч ҳақиқати” газетаси, 27.06.2014 й., 45-сон

<sup>62</sup> Xorazm viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi. [https://www.xorazmstat.uz/uz/?preview=1&option=com\\_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=306&id=4328&Itemid=100000000000](https://www.xorazmstat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=306&id=4328&Itemid=100000000000)

<sup>63</sup> Инвестиционный потенциал Хорезмской области <https://www.uzbekistan.org.ua/ru/news/48-economica-news2/investitsionnyj-klimat/5251-investitsionnyj-potentsial-khorezmskoj-oblasti.html>

<sup>64</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.04.2022 й., 09/22/154/0272-сон

shahar va tumanlarining ixtisoslashuvi, “o‘shish nuqtalari” va “drayver sohalari” tasdiqlandi<sup>65</sup>.

2017-yil 16-mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining “Xorazm viloyatining Xiva shahri va Xiva tumanining chegaralarini o‘zgartirish hamda Xiva shahrini viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish to‘g‘risida”gi hamda “Shahrisabz shahrini viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2017-yil 27-maydagi “Xorazm viloyatining Xiva shahri va Xiva tumanining chegaralarini o‘zgartirish hamda Xiva shahrini viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Bu bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi PQ-3124-sonli qaroriga asosan Xorazm viloyati hokimligi bo‘ysunuvidagi Xiva shahar hokimligi tashkil etildi<sup>66</sup>.

2017-yildan keyin Xiva shahrida xizmatlar sohasi jadal o‘sdi. 2018-yilda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 147,1 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 928,3 mlrd so‘mga yetdi. Xiva tumanida ushbu ko‘rsatkichlar 2018-yilda 152,8 mlrd so‘mni, 2024-yilda esa 836,3 mlrd so‘mni tashkil etdi<sup>67</sup>.

Xiva shahri sanoat ishlab chiqarishida ham sezilarli o‘shishga erishdi. 2017-yilda shahar sanoat hajmi 73,9 mlrd so‘m bo‘lgan bo‘lsa (Xiva tumanida 84,6 mlrd so‘m), 2024-yilga kelib 437,0 mlrd so‘mga yetdi (Xiva tumanida 375,2 mlrd so‘m)<sup>68</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2020-yil 23 martdagi 184-IV-son va Oliy Majlis Senatining 2020-yil 24 martdagi SQ-61-IV-son “Xorazm viloyatining Hazorasp tumani chegaralarini o‘zgartirish va Tuproqqal’a tumanini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilindi. Bu davrda Pitnak shahrida jami 54 ming 248 nafar fuqaro istiqomat qildi. Pitnak shahri va Tuproqqal’a maskani hududlari qo‘shilganda jami 143 ming 74 gektarni tashkil etgan. Foydalanilmayotgan yerlarda chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, bog‘dorchilik va boshqa yo‘nalishlarda loyihalar amalga oshirilib, yangi ish o‘rinlari yaratiladigan bo‘ldi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida 552 gektar yer maydoni qaytadan foydalanishga kiritilib, qo‘shimcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirilishi nazarda tutildi.<sup>69</sup> Bu yuzadan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-apreldagi PQ-4671-sonli qaroriga asosan Xorazm viloyati tarkibida Tuproqqal’a tumani hokimligi tashkil etildi<sup>70</sup>.

Tuproqqal’a tumani tashkil etilgach, u o‘zining iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan viloyat iqtisodiyotiga hissa qo‘sha boshladi. 2020-yildan boshlab Tuproqqal’a hududi sanoat ishlab chiqarish statistikalarida mustaqil aks etdi. 2020-yilda tumanda sanoat mahsuloti hajmi 4306,6 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 14020,6 mlrd so‘mga yetdi<sup>71</sup>. Tumanda xizmatlar hajmi ham o‘sib bordi. 2020-yilda

<sup>65</sup> Хоразм вилоятини ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришга доир чора-тадбирлар белгиланди. [https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda\\_yangi/horazm\\_viloyatini\\_ijtimoiy-iqtisodiy\\_rivojlantirishga\\_doir\\_chora-tadbirlar\\_belgilandi](https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/horazm_viloyatini_ijtimoiy-iqtisodiy_rivojlantirishga_doir_chora-tadbirlar_belgilandi)

<sup>66</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 28-сон, 643-модда. <https://lex.uz/ru/docs/3262295>

<sup>67</sup> Hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi <https://www.xorazmstat.uz/files/305/Xizmatlar/5774/Hududlar-bo-yicha-ko-rsatilgan-xizmatlar-hajmi.pdf>

<sup>68</sup> Tumanlar bo‘yicha sanoat mahsuloti hajmi <https://www.xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>

<sup>69</sup> <http://m.xabar.uz/uz/jamiat/xorazm-viloyati-tarkibida-tuproqqal-a-tumani>

<sup>70</sup> Qonun hujjatlarini ma’lumotlari milliy bazasi, 11.04.2020 y., 07/20/4671/0415-son <https://lex.uz/docs/4785293>

<sup>71</sup> Tumanlar bo‘yicha sanoat mahsuloti hajmi <https://www.xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>

122,8 mlrd so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda xizmatlar ko‘rsatkichi 358,5 mlrd so‘mga yetdi<sup>72</sup>. Bu hudud infratuzilmasi rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyada Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qator o‘zgarishlarga oid tahliliy ma’lumotlar keltirilgan.

## XULOSA

Dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Sovet tuzumini mustahkamlash, Sovet hukumatining mintaqadagi siyosatini shakllantirish maqsadida milliy davlat chegaralanishini o‘tkazishda asos sifatida milliy-siyosiy omilni oldi. Biroq shunday bo‘lsa-da, ayrim holatlarda iqtisodiy tamoyillar ham bosh mezon vazifasini o‘tadi. Bunda muhim tashkiliy va xo‘jalik tadbirlarini (yangi tashkil etiladigan respublikalar va oblastlarning chegaralarini belgilash, iqtisodiy chegaralash va boshqalar) amalga oshirishga e’tibor qaratildi. Sovet davlatida ma’muriy-hududiy islohotlarning navbatdagi bosqichda (1923-1929-yy) hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda yiriklashtirishga urinishlar kuzatiladi.

2. Rayonlashtirish siyosatida ko‘plab qishloq sovetlari va volostlar haddan tashqari tarqoq holda joylashtirilgandi, ularning chegaralarini belgilashda turli xatolar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yildi. Bu davrda butun mamlakatda amalda bo‘lgan 4 pog‘onali (viloyat, uyezd, volost, qishloq soveti) o‘rniga ma’muriy bo‘linishdan 3 pog‘onali (okrug, rayon, qishloq soveti) ma’muriy bo‘linishga o‘tishga qaror qilindi. Yangi okrug va tumanlarga bo‘linishdan maqsad Sovetlar apparatining ishini yaxshilash, uni aholiga yaqinlashtirish va boshqaruv organlari xarajatlarini kamaytirishdan iborat bo‘ldi.

3. Ma’muriy-iqtisodiy rayonlashtirishning amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonda 71 ta tuman mavjud bo‘lib, shundan 64 ta tuman to‘g‘ridan-to‘g‘ri O‘zSSR MIQga bo‘ysungan, qolgan tumanlar esa respublika markazidan ancha uzoqda, uning shimoliy g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, Xorazm okrugi tarkibiga kiritildi. Xorazm okrugi O‘zbekistonning o‘sha davrdagi yagona eksklavi edi. U unumdor Xorazm vohasining markaziy qismini egallagan bo‘lib, okrug hududidan Amudaryo oqib o‘tar edi. Mamlakatni industrilashtirish siyosati ta’sirida Xorazmda sanoat rivojlana boshladi. 1930-yilda “yoppasiga jamoalashtirish” shiori ostida Xorazm okrugida jamoalashtirish keskin sur’atlarda jadallashtirildi. Badavlat xo‘jaliklarning musodara qilingan mol - mulklari zahirida kollektiv xo‘jaliklar tuzila boshlanadi.

4. Sovet davrida Xorazmda majburiy tarzda amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosati ko‘plab qarshiliklarga duch keldi. Natijada sovet harbiy-siyosiy ma’muriyati kolxozlarni faqat kuch ishlatish va majburiy choralar vositasidagina tashkil etishga e’tibor qaratdi. Keyingi yuz bergan siyosiy qatag‘onlar oqibatida “davlat-jamiyat” qarama-qarshiligi kuchayishi, mahalliy hokimiyat legitimligining zaiflashuvi va ishonch inqiroziga sabab bo‘ldi.

5. Kolxoz tizimining keng rivojlanishi iqtisodiyotda davlat sektorining rivojlanishi bilan bir vaqtda sodir bo‘ldi. 1950-1952-yillarda Sovet davlatining agrar siyosatidagi kolxozlarni yiriklashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. 1950-yilga kelib, Xorazm viloyatida 413 ta kolxozlar mavjud bo‘lib, kichik hududdan iborat kolxozlar mavjud moliyaviy hamda moddiy-texnika imkoniyatlaridan samarali foydalanishga,

---

<sup>72</sup> Hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi <https://www.xorazmstat.uz/files/305/Xizmatlar/5774/Hududlar-bo-yicha-ko-rsatilgan-xizmatlar-hajmi.pdf>

ishlab chiqarishni rivojlantirishga, irrigatsiya-melioratsiya qurilishlarini jadallashtirishga to‘siq sifatida qaraldi. Natijada muqobillashtirish ishlari amalga oshirilib, viloyatdagi kolxozlar soni 1951-yilda 213 taga kamaygan bo‘lsa, 1955-yilga kelib, mavjud kolxozlar soni 165 tani tashkil qildi.

6. 1950-yillarda boshlab ma‘muriy-hududiy tuzilishni takomillashtirishga qaratilgan navbatdagi islohotlar o‘tkazildi. Shuningdek, iqtisodiy hududiy rayonlashtirish joriy etildi, 1960-1980-yillarda SSSRning ma‘muriy-hududiy siyosati quyidagi omillarga asoslangan edi: hududiy ishlab chiqarish komplekslarini yaratishga qaratilgan iqtisodiy rayonlashtirish. 2. Iqtisodiyotni rejali boshqarishga asoslangan ma‘muriy boshqaruv. 3. Hududlarni xomashyo bazasiga aylantirishga yo‘naltirilgan resurslarni ixtisoslashtirish. Bu davrda ixtisoslashgan hududiy ishlab chiqarish komplekslari umumittifoq manfaatlari yo‘lida xizmat qiluvchi qishloq xo‘jalik tarmoqlari hududlarda yangi paxtachilikka ixtisoslashgan kolxoz va sovxozlarni qurishni, yangi yerlarni muntazam ravishda o‘zlashtirib borishni taqozo etdi.

7. Mamlakatda 1957-yilda asosiy birliklarning eng yuqori darajadagi parchalanishiga erishilgandan so‘ng, ularni qayta yiriklashtirishga biroz qadam tashlandi. Bu davrdagi ma‘muriy-hududiy o‘zgarishlar jarayoni N. S. Xrushyov davridagi sovnarxozlar (1957-1965-yillar) islohoti bilan hamroh bo‘ldi. SSSRning ma‘muriy-hududiy bo‘linishini isloh qilish 1962-1963-yillarda xalq xo‘jaligini boshqarish tizimini isloh qilish doirasida amalga oshirildi. Ammo bu islohotlar ham samarasiz bo‘lib chiqdi va 1964-yil dekabr – 1965-yil yanvar oylarida orqaga qaytarildi. Sanoat va qishloq tumanlari tugatilib, oddiy ma‘muriy tumanlar tiklandi.

8. XX asrning 50-yillari ikkinchi yarmidan boshlangan ma‘muriy-hududiy o‘zgarishlar doirasida Xorazm viloyatida 1957-yilda Mang‘it tumani Qoraqalpog‘iston ASSR tarkibiga o‘tkazildi, uning o‘rniga Amudaryoning chap qirg‘og‘idagi Cholish pristani va atrofidagi yerlar Urganch tumani tassarufiga o‘tkazildi. 1959-yilda Bog‘ot va Yangibozor tumanlari, 1963-yilda Qo‘shko‘pir, Urganch va Xonqa tumanlari tugatildi. 1960-yillardan boshlab, respublika va uning hududlari qayta tiklanish jarayonini boshdan kechirdi. Xorazm viloyatida ham ba‘zi tugatilgan tumanlar qayta tashkil etildi. 1967-yilda Qo‘shko‘pir tumani, 1970-yilda Bog‘ot tumani, 1973-yilda Xonqa tumani qayta tiklandi. 1980-yillarda viloyatda yana bir qator ma‘muriy-hududiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

9. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng “o‘zining milliy-davlat va ma‘muriy hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilaydi”gan milliy qonunchilik tizimi shakllantirildi. 1992-yilda Xorazm viloyatidagi Gurlan, Xonqa, Shovot, Qo‘shko‘pir va Hazorasp shaharlarini shahar posyolkalari turkumiga o‘tkazildi. Bu davrda kolxoz va sovxozlar butunlay tugatilmagan bo‘lib, 1993–1998-yillar oralig‘ida ular “shirkat xo‘jaliklari” deb yuritila boshlandi. Kolxoz yerlari asta-sekin fermerlarga ajratib berildi. Mamlakatda qishloq joylarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga alohida ahamiyat berildi. “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” da maxsus Davlat dasturi ishlab chiqildi, uni amalga oshirish jarayonida Xorazm viloyatida 51 ta qishloqlar shaharcha maqomiga ega bo‘ldi.

10. Yangi O‘zbekiston sharoitidagi ma‘muriy-hududiy o‘zgarishlar doirasida 2017-yilda “Xorazm viloyatining Xiva shahri va Xiva tumanining chegaralari o‘zgartirilib, Xiva shahri viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. 2020-yilda viloyatning Hazorasp tumani chegaralari o‘zgartirilib,

Tuproqqal'a tumani tashkil etildi. Xorazm viloyati shahar va tumanlarining ixtisoslashuvi yuz berib, "o'sish nuqtalari" va "drayver sohalari belgilab olindi. Davlat va xo'jalik boshqaruvining yangi shakllari vujudga kelishi, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarining amalga oshirilishi, mahalla institutining transformatsiyasi kabi o'zgarishlar Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalari quyidagi **taklif va tavsiyalarni** ishlab chiqish imkonini berdi:

Sovet hukumatining rayonlashtirish siyosati, sovet davri va mustaqillik yillarida ma'muriy-hududiy islohotlar natijalarini viloyatning shahar va tumanlari tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar doirasiga kiritish lozim.

O'zbekiston tarixida darslik, o'quv qo'llanma va akademik nashrlarning yangi avlodini yaratishda mamlakat hududlari kesimida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tarixiga oid tadqiqot materiallaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston hududlarida tashkil etilgan yangi ma'muriy-hududiy birliklarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi, ularda joylashgan idora va tashkilotlar faoliyati, ishlab chiqarish jarayonlarini o'zida aks ettirgan badiiy va hujjatli filmlarni suratga olish hamda targ'ibot-tashviqot orqali keng jamoatchilikka yetkazish lozim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАН БЕРУНИ**

---

**УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ  
РАЙХАН БЕРУНИ**

**МАТЯКУБОВ АЛИШЕР ЭШЧАНОВИЧ**

**ИСТОРИЯ АДМИНИСТРАТИВНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ  
ПРЕОБРАЗОВАНИЙ УЗБЕКИСТАНА (1924-2023 ГГ., НА ПРИМЕРЕ  
ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**07.00.01 – История Узбекистана**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
НА СОИСКАНИЕ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ургенч – 2025**

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за В2023.3.PhD/Tar1563.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете по имени Абу Райхан Беруни.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице по адресу ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)), а также на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)

**Научный руководитель:**

**Давлетов Санжарбек Ражабович**  
доктор исторических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Кошанов Бахытбай Абдикеримович**  
доктор исторических наук, профессор

**Хужамуратов Умаржан Рустамович**  
доктор философии исторических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Каракалпакский научно-исследовательский институт гуманитарных наук  
Каракалпакского отделения АН РУз**

Защита диссертации состоится « 10 » декабрь 2025 года в 14 00 часов на заседании Учёного совета PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 по присуждению учёных степеней при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхан Беруни. Адрес: 220100, город Ургенч, улица Х. Алимджана, дом 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00; e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета имени Абу Райхан Беруни (зарегистрировано за № 892 ). (Адрес: 220100, город Ургенч, улица Х. Алимджана, дом 14. Тел.: (99862) 224-67-00). e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz)

Автореферат диссертации разослан « 22 » ноябрь 2025 года  
(реестр протокола рассылки № 22 от « 22 » ноябрь 2025 года).



**М. К. Саробаев,**

Председатель научного совета по присуждению ученой степени, д.и.н., доцент

**Х. Х. Матякубов,**

Учёный секретарь научного совета по присуждению ученой степени, д.и.н., доцент

**У. И. Абдуллаев,**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученой степени, д.и.н., профессор

## **Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Происходящие в мире геополитические процессы, экономические реформы и системные меры по повышению эффективности государственного управления еще больше повышают актуальность административно-территориальных реформ. В частности, в глобальном масштабе совершенствование территориального управления, эффективное распределение ресурсов, обеспечение социально-экономического баланса между регионами становятся одним из приоритетных направлений государственной политики.

В последствии экономического районирования и административно-территориальных реформам в республиках Центральной Азии в годы независимости, проводятся научные исследования в мировом масштабе по административно-территориальным изменениям в Советском государстве. Действительно, в зарубежном опыте развития государственности административные реформы и административно-территориальные изменения играют важную роль в экономической стабильности и стратегическом развитии государств. В течение XX века в рамках экономических реформ во многих странах мира были реструктурированы административные структуры, расширены их возможности управления и распределения ресурсов. На примере Германии, Франции, Китая и других развитых стран наблюдается повышение эффективности государственной системы за счет совершенствования территориального управления.

В Узбекистане в ходе исторического развития произошли ряд изменений в системе территориального управления. После обретения Республикой Узбекистан государственной независимости была разработана и последовательно реализована новая модель социально-экономического развития. Административные реформы, направленные на реформирование государственного управления в стране, расширение полномочий местных органов власти, комплексное развитие регионов определены в качестве приоритетных задач. В частности, идея построения справедливого и современного государства, служащего только народу, стала одним из основных принципов развития Нового Узбекистана<sup>73</sup>. Такие реформы, как переход к цифровой экономике и совершенствование системы местного управления в Узбекистане, показывают необходимость анализа процессов в регионах страны. В частности, роль административно-территориальных изменений с начала XX века до настоящего времени в историческом развитии страны и их влияния на социально-экономическую жизнь регионов требует изучения в рамках исторической науки.

Данное исследование в определенной степени служит реализацией задач, указанных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы,” № УП-269 от 21 декабря 2022 года “О мерах по реализации административных реформ Нового Узбекистана,” Постановлении Президента Республики

---

<sup>73</sup> Мирзиёев Ш.М. Нозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: Ўзбекистон, 2024. – Б. 50.

Узбекистан № ПП-168 от 18 марта 2022 года “О дополнительных мерах по дальнейшему сокращению государственного участия в экономике и ускорению приватизации,” Постановлении Кабинета Министров № 154 от 4 апреля 2022 года “О дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию территорий и дальнейшему повышению уровня жизни населения Хорезмской области в 2022-2026 годах,” а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики I. “Формирование системы социальных, правовых, экономических инновационных идей информационного общества и демократического государства и пути их реализации.”

**Степень изученности проблемы**<sup>74</sup>. Исторические исследования по истории административно-территориальных изменений в Узбекистане (на примере Хорезмской области в 1924-2023 гг.) можно разделить на следующие три группы: 1) исследования, созданные в советский период; 2) литература, написанная в годы независимости; 3) зарубежные исследования. Хотя произведения, включенные в первую группу, были написаны на основе коммунистической идеологии Советского государства, они важны богатством различных источников. В годы независимости в нашей стране были написаны ряд научно-исследовательских работ, анализирующих некоторые аспекты темы, которые составляют литературу второй группы. Некоторые аспекты выбранной темы также проанализированы в зарубежной литературе, в которой в основном отражены процессы в масштабах бывшего Союза, в том числе в Узбекистане.

**Связь темы диссертации с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация.** Диссертация выполнена в соответствии с планом научно-исследовательских работ Ургенчского государственного университета.

**Целью исследования** является выявление динамики административно-территориальных изменений в Хорезмской области в 1924-2023 годах.

**Задачи исследования:**

Исследование организационно-правовых основ административно-территориальных преобразований в Узбекистане в советский период и годы независимости;

Показать отражение в источниках политики районирования и административно-территориальных изменений советского государства;

анализ историографии проблемы;

Раскрытие административных и социально-экономических процессов в Хорезмском округе;

Показать административно-территориальное деление Хорезмской области в 1938-1960 гг. в контексте общественно-политических процессов;

---

<sup>74</sup> Степень изученности проблемы подробно освещена в главе I диссертации.

Предоставить информацию о территориальных проблемах развития производительных сил в Хорезмской области в 60-80-е годы XX века;

анализ проведения административно-территориальных реформ в Хорезмской области в годы независимости;

Хорезмская область в условиях Нового Узбекистана: раскрытие особенностей регионального развития.

**Объектом исследования** являются административно-территориальные реформы в Узбекистане в советский период и годы независимости.

**Предметом исследования** выбрано и изучено влияние административно-территориальных реформ 1924-2023 годов в Хорезмской области на социально-экономическую жизнь региона.

**Методы исследования.** В процессе исследования использовались такие методы и приемы, как историко-сравнительный, проблемно-хронологический, объективность, системный анализ, статистическое научное исследование.

